



Andijon viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020- yil yanvar-avgust)



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020- yilning yanvar-avgust oylarida viloyat korxonalari tomonidan 23 187,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi*103,4 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (97,8 %) ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish


Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishiga asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 4,2 % ga oshganligi kuzatildi.

Shuningdek, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida – 45,5 % ga suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda – 11,3 % ga pasayish kuzatildi.

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 79,5 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ini tashkil etdi.



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning shu davriga nisbatan neft qazib olish – 81,4 % ga pasaygan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan tabiiy gaz qazib olish – 2,6 martaga hamda gaz kondensati qazib olish esa – 3,8 martaga oshgan.




Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-avgust	2020- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Neft, <i>ming t.</i>	41,7	7,7	-34,0
Tabiiy gaz, <i>mln. kub.m.</i>	28,5	73,4	44,9
Gaz kondensati, <i>ming t.</i>	0,2	0,7	0,5



Ishlab chiqaradigan sanoat

2020- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 22676,1 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 97,8 % ini tashkil etdi.





Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati



2020- yilning yanvar-avgust oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 413,0 ming litr uzum vinosi (2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 115,7 % ga o'sgan), 40,7 ming tonna, kalava ip (108,8 %), 104,6 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (120,3 %), 518,0 ming. litr aroq mahsulotlari (103,5 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-avgust	2020- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Yengil avtomobillar, <i>dona</i>	135 661	152 531	16 870
Bug'doy uni, tonna	86 977,0	104 626,0	17 649,0
Paxtadan yigirilgan ip, tonna	37 417,1	40 710,9	3 293,8
Aroq, ming. litr	500,4	518,0	17,6
Uzum vinosi, ming. litr	357,0	413,0	56,0
Etil spirti, ming. litr	7 317,0	8 536,0	1 219




Andijon viloyatida yengil avtomobillar ishlab chiqarish sanoati (dona)



«Cobalt»



«Nexia T-250»




«Spark»



«Gentra»



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 371,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (1,6 % ini) tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-avgust oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 17,0 % ga o'sganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-avgust	2020- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Elektr energiya, mln.kVt/s	381,2	217,3	-163,9
Issiqlik energiyasi, ming gkal	24,7	32,3	7,6



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 60,3 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-avgust	2020- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Qayta foydalanishga yaroqsiz boshqa xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	11,2	11,6	0,4
Suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	26,2	28,5	2,3

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish 8,8 % ga, hamda xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar 1,9 % ga oshganlik kuzatildi.



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 17 537,8 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 4,6 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 75,6 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,1 % (2019- yil yanvar-avgust oylarida ham 0,1 %)ni tashkil etgan edi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Asaka tumaniga to'g'ri kelib, 78,4 % ni, shuningdek, Andijon shahri 5,2 % ni, Xo'jaobod tumani 2,6 % ni, Oltinko'l tumani 1,8 % ni hamda Shahrixon tumani 1,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (104,6 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Xo'jaobod (123,6 %), Oltinko'l (125,3 %), Bo'ston (108,7 %) hamda Asaka tumanlarida (104,6 %) ni qayd etdi.



**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2020- yilning yanvar-avgust oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, % da
Andijon viloyat bo'yicha:	17537,8	100,0	104,6
Andijon shahar	908,8	5,2	103,3
Xonobod shahar	92,8	0,5	102,7
tumanlar:			
Andijon	284,7	1,6	101,2
Asaka	13752,2	78,3	104,6
Baliqchi	161,6	0,9	97,7
Buloqboshi	183,1	1,0	109,7
Bo'ston	124,3	0,7	108,7
Jalaquduq	198,2	1,1	90,0
Izboskan	165,7	1,0	97,7
Ulug'nor	71,6	0,4	101,3
Marhamat	142,3	0,8	105,7
Oltinko'l	308,4	1,8	125,3
Paxtaobod	171,4	1,0	102,4
Xo'jaobod	460,6	2,6	123,6
Shahrixon	274,9	1,6	88,7
Qo'rgontepa	237,3	1,4	104,8



Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 3 780,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Horijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 16,3 % ni tashkil etdi.



Hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

	2020- yil yanvar-avgust mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Andijon viloyat bo'yicha:	23187,5	103,4
Andijon shahar	3679,7	107,8
Xonobod shahar	860,0	111,3
tumanlar:		
Andijon	548,1	100,7
Asaka	14116,7	103,6
Baliqchi	399,9	90,8
Buloqbo'shi	192,1	101,3
Bo'ston	187,7	101,8
Jalaquduq	326,3	102,0
Izboskan	435,1	137,1
Ulug'nor	142,8	97,9
Marhamat	241,0	112,1
Oltinko'l	394,1	133,3
Paxtaobod	289,9	102,7
Xo'jaobod	478,2	105,8
Shahrixon	416,3	93,4
Qo'rgontepa	479,5	109,6


Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida, viloyatda 2020-yilning yanvar-avgust oylarida jami 23 187,5 mlrd. so'mga teng sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Shahar va tumanlar kesimida yuqori hajm Asaka tumanida 14 116,7 mlrd. so'mni, Andijon shahrida 3 679,7 mlrd. so'mni, Xonobod shahrida 860,0 mlrd. so'mni, Andijon tumanida esa 548,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyatda sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining o'sishiga, Asaka (103,6 %), Qo'rg'ontepa (109,6 %), Izboskan (137,1 %), Oltinko'l tumanlarida (133,3 %) hamda Xonobod shahar (111,3 %) va Andijon shaharlarida (107,8 %)ga sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi oshganligi bilan izohlashimiz mumkin.




Andijon viloyati tumanlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da

Sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, % da




Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati, % da



Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarishda Xo'jaobod (2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan 123,6 %), Oltinko'l (125,3 %), Asaka (104,6 %), Bo'ston (108,7 %), Xonobod sh (102,7 %), Andijon sh (103,3 %), Marhamat (105,7 %), Buloqboshi (109,7 %), Paxtaobod (102,4 %), Qo'rg'ontepa tumanlarida (104,8 %)ga sezilarli darajada oshdi.



Andijon viloyati tumanlar kesimida jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Asaka tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 60,9 %), Andijon shahar (15,9 %), Xonobod shahar (3,7 %), Andijon (2,4 %), hamda Qo'rgontepa (2,1 %) tuman-lari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Ulug'nor (0,6 %) tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Asaka (43 144,0 ming so'm), Xonobod sh (20 187,5 ming so'm), Andijon shahrida (8 291,3 ming so'm), o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (7 383,4 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 4 861,7 ming so'm bo'lgan holda, Asaka tumanida – 42 029,9 ming so'mni, Xo'jaobod tumanida – 4 190,7 ming so'mni, Andijon shahar – 2 047,7 ming so'mni, Bo'ston tumanida 1 726,3 ming so'mni, Oltinko'l tumanida 1 738,4 ming so'mni tashkil etdi.




**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**
(2020- yil yanvar-avgust oylarida, ming so'm).

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
Andijon viloyat:	7383,4	5584,4
Andijon sh	8291,3	2047,7
Xonobod sh	20187,5	2177,4
tumanlar:		
Andijon	2083,9	1082,4
Asaka	43144,0	42029,9
Baliqchi	1998,6	807,4
Buloqboishi	1349,3	1286,0
Bo'ston	2607,5	1726,3
Jalaquduq	1760,2	1069,2
Izboskan	1833,0	698,1
Ulug'nor	2395,8	1202,1
Marhamat	1395,6	823,8
Oltinko'l	2221,4	1738,4
Pahtaobod	1506,1	890,5
Xo'jaobod	4350,9	4190,7
Shahrixon	1392,6	919,8
Qo'rg'ontepa	2224,1	1100,6



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi (2020- yil yanvar-avgust oylarida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 4128,3 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 17,8 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Buloqboshi tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Izboskan tumanida (91,9 %), Shahrixon (82,9 %), Xo'jaobod (63,8 %), Jalaquduq (76,2 %), Pahtaobod (59,9 %) tumanlarida kuzatildi.

Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Asaka (2,0 %), Honobod sh (13,8 %), Andijon sh (21,3 %), hamda Qo'rg'ontepa tumanida (41,4 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari
(2020- yil 1- sentyabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 8028 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 3020 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 37,6 %) Andijon shahriga, 842 tasi (10,5 %) Asaka tumaniga, 624 tasi (7,8 %) Andijon tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, birlikda.		Faoliyat yuritayotgan korxonalar soni, birlikda.
28	Ulug'nor	81
31	Honobod sh	139
91	Bo'ston	161
69	Pahtaobod	186
74	Buloqboshi	227
71	Marhamat	234
77	Baliqchi	251
110	Jalaquduq	277
82	Izboskan	277
100	Qo'rgontepa	321
92	Oltinko'l	355
123	Xo'jaobod	434
134	Shahrixon	599
119	Andijon	624
144	Asaka	842
651	Andijon sh	3020


2020- yil yanvar-avgust oyida viloyatda 1 996 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 651 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 32,6 %) Andijon shahrida, 144 tasi (7,2 %) Asaka tumanida, 134 tasi (6,7 %) Shahrixon tumanida, 100 tasi (5,0 %) Qo'rg'ontepa tumanida, 91 tasi (4,6 %) Bo'ston tumanida hamda 110 tasi (5,5 %) Jalaquduq tumaniga to'g'ri keldi.




Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari (2020- yil 1- sentyabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonalari joylashgan hududlar 8 taligida Andijon shahrida (3 020 ta), Asaka (842 ta), Andijon (624 ta), Shahrixon (599 ta), Xo'jaobod (434 ta), Oltinko'l (355 ta), Qo'rg'ontepa (321 ta), Izboskan tumanlari (277 ta) ni qayd etdi.

Viloyat miqyosida eng ko'p sanoat ishlab chiqarish korxonalari joylashgan shahar va tumanlar 8 taligi
(2020- yil 1- sentyabr holatiga ko'ra)



Viloyat miqyosida eng kam sanoat ishlab chiqarish korxonalari joylashgan shahar va tumanlar
(2020- yil 1- sentyabr holatiga ko'ra)



2020- yilning 1-sentyabr holatiga ko'ra viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar 8 taligiga esa Jalaquduq (277 ta), Baliqchi (251 ta), Marhamat (234 ta), Buloqboshi (227 ta), Pahtaobod (186 ta), Bo'ston (161 ta), Ulug'nor tumanlarida (81 ta) hamda Xonobod shahrida (139 ta) qayd etildi.

**Sanoat statistikasi
bo'limi**

Tel.: (74) 228-30-42